

**HARBIY SHARHLOVCHILIK MAKTABLARI:
O‘ZBEKISTONDA SHAKLLANTIRISH MUAMMOSI**

Mohinur Anorboyeva

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Jurnalistika mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistonda harbiy sharhlovchilik maktablarining shakllanish muammolari tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida mamlakatimizda harbiy jurnalistika ta’limining hozirgi holati, uning tarixiy rivojlanish bosqichlari va xalqaro tajribalar bilan qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Maqolada harbiy sharhlovchilik maktablarini tashkil etishning zaruriyati, ularning milliy xavfsizlik ta’minlashidagi o‘rni va ahamiyati asoslantirilgan. Shuningdek, harbiy jurnalistika ta’limi tizimidagi mavjud kamchiliklar, kadrlar tayyorlashning nazariy va amaliy jihatlaridagi muammolar ko‘rib chiqilgan. NATO, AQSh va Rossiya tajribasidan kelib chiqqan holda, O‘zbekistonda harbiy sharhlovchilik maktablarini yaratish va rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari taklif etilgan. Tadqiqot natijalarida O‘zbekiston Qurolli Kuchlarida professional harbiy jurnalistlar tayyorlashning zarurligi va buning uchun maxsus ta’lim dasturlari ishlab chiqish zaruriyati ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *harbiy sharhlovchilik, harbiy jurnalistika, harbiy ta’lim tizimi, kadrlar tayyorlash, axborot xavfsizligi, O‘zbekiston Qurolli Kuchlari, xalqaro tajriba.*

Аннотация: *В данной статье анализируются проблемы формирования школ военного комментаторства в Узбекистане. В рамках исследования проведен анализ современного состояния военно-журналистского образования в стране, исторических этапов его развития и сравнительный анализ с международным опытом. В статье обоснована необходимость создания школ военного комментаторства, их роль и значение в обеспечении национальной безопасности. Также рассмотрены существующие недостатки в системе военно-журналистского образования, проблемы теоретической и практической подготовки кадров. Исходя из опыта НАТО, США и России, предложены перспективные направления создания и развития школ военного комментаторства в Узбекистане. Результаты исследования подчеркивают необходимость подготовки профессиональных военных журналистов в Вооруженных Силах Узбекистана и разработки для этого специальных образовательных программ.*

Ключевые слова: *военное комментаторство, военная журналистика, система военного образования, подготовка кадров, информационная безопасность, Вооруженные Силы Узбекистана, международный опыт.*

Abstract: *This article analyzes the problems of forming military commentary schools in Uzbekistan. Within the framework of the study, an analysis of the current state of military journalism education in the country, historical stages of its development, and comparative analysis with international experience was carried out. The article substantiates the necessity of establishing military commentary schools, their role and importance in ensuring national security. The existing shortcomings in the military journalism education system and problems in the theoretical and practical training of personnel are also examined. Based on the experience of NATO, the USA, and Russia, promising directions for creating and developing military commentary schools in Uzbekistan are proposed. The research results emphasize the need to train professional military journalists in the Armed Forces of Uzbekistan and develop special educational programs for this purpose.*

Keywords: *military commentary, military journalism, military education system, personnel training, information security, Armed Forces of Uzbekistan, international experience.*

XXI asrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, media makonining kengayishi va gibridd urushlar davrida harbiy sharhlovchilik mutaxassislari tayyorlash milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Zamonaviy harbiy to‘qnashuvlar nafaqat qurol kuchi, balki axborot maydoni, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali ham olib borilmoqda⁷⁰. Shu munosabat bilan, professional harbiy sharhlovchilar – mudofaa siyosati va harbiy islohotlar bo‘yicha chuqur bilimga ega, og‘zaki va yozma nutqi ta’sirchan bo‘lgan jurnalistlar tayyorlash zarurati paydo bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasida harbiy ta’lim tizimi tubdan islohotlar jarayonidan o‘tmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-269-son [farmoniga](#) muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga kiruvchi vazirlik va idoralar hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarni (keyingi o‘rinlarda — maxsus organlar) zamonaviy qurol-yarog‘, harbiy va maxsus texnika bilan qurollantirish tizimini takomillashtirish, mudofaa sanoati samarali faoliyat yuritishi uchun yanada qulay shart-

⁷⁰ Ro‘ziqulov D.Sh. Harbiy jurnalistikada axborot integratsiyasining nazariy va amaliy xususiyatlari. Monografiya. – T.: Publishing high future, 2023.

sharoitlar yaratish⁷¹, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining zamonaviylashtirilishi⁷² milliy harbiy kadrlar tayyorlashda yangi bosqichni belgilab berdi. Biroq, harbiy sharhlovchilik maktablari – maxsus ta’lim dasturlari va amaliy tajriba bilan ta’minlangan harbiy jurnalistlar tayyorlaydigan tizimlar hali to’liq shakllanmagan.

Ilmiy maqolada O‘zbekiston harbiy sharhlovchilik maktablarining shakllanish muammolari tahlil qilindi. Xalqaro tajribalar o‘rganildi va milliy tizim uchun tavsiyalar berildi.

Harbiy jurnalistika – bu harbiy-siyosiy hodisalar, mudofaa siyosati, Qurolli Kuchlarning faoliyati, harbiy texnika va uskunalar, xalqaro harbiy hamkorlik haqidagi axborotlarni yig‘ish, tahlil qilish va ommaga yetkazishning maxsus sohasi. Harbiy sharhlovchilik esa harbiy jurnalistikaning yuqori malakali yo‘nalishi bo‘lib, u nafaqat voqealarni yoritish, balki ularning sabablarini tahlil qilish, oqibatlarini prognozlash va davlat harbiy siyosatini tushuntirishni o‘z ichiga oladi⁷³.

Harbiy sharhlovchi – bu harbiy fan, harbiy tarix, geosiyosat, xalqaro huquq va zamonaviy qurol tizimlari bo‘yicha chuqur bilimga ega, analitik fikrlash qobiliyati yuqori bo‘lgan, media makonida samarali ishlashni biladigan mutaxassis. Harbiy sharhlovchilarning faoliyati milliy xavfsizlik manfaatlariga, davlat siri va axborot xavfsizligi tamoyillariga to‘liq mos kelishi lozim⁷⁴.

O‘zbekistonda harbiy jurnalistikaning shakllanishi mustaqillik yillariga to‘g‘ri keladi. Ro‘ziqulov Dilshod Shuhrat o‘g‘lining PhD dissertatsiyasida ta’kidlanishicha, "O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda harbiy jurnalistika tushunchasi amalda mavjud emas edi, harbiy mavzular umumiy jurnalistika doirasida yoritilardi"⁷⁵. 1990-yillarning oxiri va 2000-yillarning boshida "Vatan himoyachisi" jurnali, "Xalq so‘zi" va boshqa nashrlar harbiy mavzularga ko‘proq e’tibor qarata boshladi.

Muhim qadam 2018-yilda O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti (O‘zJOKU) tarkibida Xalqaro jurnalistika fakultetining tashkil etilishi bo‘ldi⁷⁶.

⁷¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.01.2023 yildagi PF-16-son farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6375794>

⁷² O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti. <https://akad.uz/>

⁷³ Mamlakatimizda harbiy jurnalistikaning vujudga kelishi va uning rivojlanish bosqichlari // <https://web-journal.ru/journal/article/view/1571>

⁷⁴ O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasi. O‘RQ-458-son. – Toshkent, 2018. URL: <https://lex.uz/docs/-3495885>

⁷⁵ Ro‘ziqulov D.Sh. O‘zbekistonda harbiy jurnalistika axborot integratsiyasi jarayonlari tarkibida <https://www.oriens.uz/media/conferencearticles/55>.

⁷⁶ O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti. Rasmiy veb-sayt. URL: <https://uzjoku.uz>

Bu yerda jurnalistik kadrlar tayyorlanmoqda, ammo maxsus harbiy sharhlovchilik dasturlari mavjud emas. Shuningdek, O‘zbekiston Davlat jahon tillari universiteti Xalqaro jurnalistika fakulteti⁷⁷ ham ushbu sohada ta’lim berishda ishtirok etmoqda.

2018-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasini⁷⁸ harbiy axborot siyosatining huquqiy asoslarini belgilab berdi. Biroq, ushbu hujjatda harbiy sharhlovchilar tayyorlashning maxsus mexanizmlari to‘liq ishlab chiqilmagan.

NATO va AQShning harbiy jurnalistikasi dunyodagi eng rivojlangan axborot tizimlaridan biri hisoblanadi. Bu tizimlar zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan bo‘lib, harbiy sohada shaffoflikni ta’minlash, jamoatchilik bilan o‘zaro ishonchli aloqa o‘rnatish hamda xalqaro miqyosda harbiy siyosatni to‘g‘ri yoritishga qaratilgan. AQShda harbiy jurnalistika professional tizim sifatida XX asrning o‘rtalaridan shakllanib kelgan. Pentagon va AQSh Mudofaa vazirligi maxsus “Defense Information School” (DINFOS) – Mudofaa axborot maktabini tashkil etgan⁷⁹. Bu maktabda harbiy xizmatchilar va fuqaro jurnalistlar harbiy sharhlovchilik bo‘yicha to‘liq kurs o‘tadilar. Dasturda quyidagilar mavjud:

- Harbiy protokol va axborot xavfsizligi;
- Jang maydonidan xabar berish texnikasi;
- Multimedia jurnalistika;
- Krizis va urush sharoitida ishlash ko‘nikmalari;
- Harbiy texnika va uskunalar bo‘yicha bilimlar.

NATO tizimida esa "NATO Strategic Communications Centre of Excellence" (Stratcom COE) harbiy sharhlovchilik va axborot operatsiyalari bo‘yicha xalqaro standartlarni ishlab chiqadi⁸⁰. Bu markaz tinchlikparvarlik missiyalarida harbiy sharhlovchilikning xalqaro tamoyillarini qo‘llaydi.

Rossiyada harbiy jurnalistika ta’limi bir necha yo‘nalishda amalga oshiriladi. Sankt-Peterburg davlat universiteti Jurnalistika fakulteti, Moskva davlat universiteti va maxsus harbiy o‘quv yurtlarida harbiy sharhlovchilik bo‘yicha dasturlar mavjud⁸¹. Shuningdek,

⁷⁷ O‘zbekiston Davlat jahon tillari universiteti. Xalqaro jurnalistika fakulteti. URL: <https://uzswlu.uz>

⁷⁸ O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasini // https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/senat_mudofaa_doktrinasini_tasdiqladi

⁷⁹ Defense Information School (DINFOS). U.S. Department of Defense. USA, 2024. <https://www.dinfos.dma.mil/>

⁸⁰ NATO Strategic Communications Centre of Excellence (Stratcom COE). Official website, 2024. <https://stratcomcoe.org/projects/academic-journal>

⁸¹ Sankt-Peterburg Davlat Universiteti. Jurnalistika fakulteti // <https://usfeu.ru/>

Rossiya Mudofaa vazirligining "Krasnaya zvezda" gazetasi va "Zvezda" telekanali harbiy jurnalistlar uchun o'quv bazasi vazifasini bajaradi⁸².

Rossiya tajribasida harbiy sharhlovchilar nafaqat jurnalistik ko'nikmalar, balki harbiy tarix, harbiy strategiya va qurol tizimlari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishlari talab qilinadi. Bu esa ularni professional mutaxassisga aylantiradi.

O'zbekistonda harbiy sharhlovchilik maktabini shakllantirish jarayonida eng asosiy muammolardan biri bu – maxsus institutlar va tashkiliy tuzilmalar yetishmasligidir. Hozirgi kunda harbiy sharhlovchilar tayyorlaydigan maxsus o'quv muassasalari yoki fakultetlar mavjud emas. O'zbekiston Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti va Qurolli Kuchlar akademiyasi asosan harbiy kadrlar tayyorlashga qaratilgan, ammo harbiy jurnalistika va sharhlovchilik bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilmagan. O'zJOKU va UzDJTU xalqaro jurnalistika fakultetlarida umumiy jurnalistik ta'lim beriladi, lekin harbiy sharhlovchilik yo'nalishi mavjud emas.

Harbiy sharhlovchilik maktablarini yaratish uchun yuqori malakali o'qituvchilar zarur. Biroq, O'zbekistonda bu sohada tajribaga ega pedagog va amaliyotchilar soni juda kam. "Harbiy ilm-fan tadqiqotlari" jurnalida e'lon qilingan maqolalarda harbiy kadrlar tayyorlashning pedagogik jihatlari muhokama qilingan⁸³, lekin harbiy jurnalistika sohasi alohida yo'nalish sifatida ko'rib chiqilmagan.

Bundan tashqari, xalqaro standartlarga mos harbiy sharhlovchilik dasturlari ishlab chiqilmagan. O'zbekistonda harbiy jurnalistika bo'yicha maxsus darsliklar, metodik qo'llanmalar va amaliy mashg'ulotlar uchun bazalar yo'q. Bu esa professional harbiy sharhlovchilar tayyorlashni sekinlashtirmoqda.

Harbiy sharhlovchilik – bu nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikmalar talab qiladigan kasbdir. O'zbekistonda harbiy mavzularda ishlayotgan media muassasalari juda kam va ular o'quv yurtlari bilan hamkorlik tizimini to'liq yo'lga qo'ymagan. Natijada, talabalar amaliy tajriba olish imkoniyatidan mahrum bo'lmoqdalar.

Harbiy sharhlovchilar faoliyati milliy xavfsizlik bilan bog'liq. Ularning O'zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasi va davlat siri to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq ishlashi talab qilinadi⁸⁴. Biroq, bu tamoyillarni harbiy jurnalistika ta'limiga integratsiya qilish mexanizmlari hali ishlab chiqilmagan.

⁸² Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligi. "Krasnaya zvezda" gazetasi va "Zvezda" telekanali. Moskva, 2024.

⁸³ Harbiy kadrlar tayyorlash masalasida o'zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirishning pedagogik jihatlari // Cyberleninka.ru. – 2023. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/harbiy-kadrlar-tayyorlash-masalasida-o-zaro-hamkorlik-alloqalarini-rivojlantirishning-pedagogik-jihatlari>

⁸⁴ O'zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasi va davlat siri to'g'risidagi qonunchilik // <https://lex.uz/mact/-3495885>

Harbiy sharhlovchilik maktablarini shakllantirish jarayonida eng muhim yo‘nalishlardan biri — bu maxsus ta‘lim dasturlarini ishlab chiqishdir. Chunki malakali harbiy jurnalist va sharhlovchilarni tayyorlash uchun ularning kasbiy ehtiyojlariga mos o‘quv tizimi va metodika zarur.

-O‘zbekiston Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti yoki Qurolli Kuchlar akademiyasi bazasida "Harbiy sharhlovchilik va media ta‘minot" yo‘nalishini ochish zarur. Dasturga quyidagilar kiritilishi lozim:

- Harbiy tarix va harbiy strategiya;
- Xalqaro harbiy huquq va geosiyosat;
- Zamonaviy qurol tizimlari va harbiy texnologiyalar;
- Media makon va axborot urushi;
- Harbiy sharhlovchilik amaliyoti va multimediya jurnalistika;
- Davlat siri va axborot xavfsizligi.

-NATO Stratcom COE, AQSh DINFOS va Rossiya harbiy jurnalistika markazlari bilan hamkorlik o‘rnatish, o‘zbek harbiy jurnalistlarini xalqaro kurslar va stajirovakalarga yuborish maqsadga muvofiq. Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida harbiy axborot siyosati bo‘yicha mintaqaviy hamkorlik rivojlantirish zarur.

-O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston Teleradiokompaniyasi va boshqa yirik media tashkilotlari bilan Mudofaa vazirligi o‘rtasida hamkorlik shartnomalarini tuzish, talabalar uchun amaliyot dasturlari ishlab chiqish zarur⁸⁵. Shuningdek, "Vatan himoyachisi" jurnali va boshqa harbiy nashrlarni o‘quv bazasi sifatida foydalanish mumkin.

-O‘zbekiston Qurolli Kuchlari Mudofaa va harbiy xavfsizlik muammolarini o‘rganish ilmiy-tadqiqot instituti bazasida harbiy sharhlovchilik bo‘yicha ilmiy yo‘nalishni tashkil etish, "Harbiy ilm-fan tadqiqotlari" jurnalida maxsus bo‘lim ochish tavsiya etiladi⁸⁶.

-Harbiy sharhlovchilar uchun doimiy malaka oshirish kurslari, seminar va treninglar tashkil etish zarur. Bu kurslar xalqaro mutaxassislar va tajribali harbiy jurnalistlar ishtirokida o‘tkazilishi maqsadga muvofiq.

O‘zbekistonda harbiy sharhlovchilik maktablarini shakllantirish – bu murakkab, ko‘p qirrali va uzoq muddatli jarayondir. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda ushbu sohaning institutlar, kadrlar, dasturlar va amaliy tajriba bazasi jihatidan jiddiy muammolari mavjud. Biroq, harbiy ta‘lim tizimining islohotlari, xalqaro hamkorlik imkoniyatlari va

⁸⁵ O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va media muassasalari bilan hamkorlik. Rasmiy ma‘lumotlar. – Toshkent, 2024.

⁸⁶ O‘zbekiston Qurolli Kuchlari Mudofaa va harbiy xavfsizlik muammolarini o‘rganish ilmiy-tadqiqot instituti. "Harbiy ilm-fan tadqiqotlari" jurnali. – Toshkent, 2024.

milliy manfaatlarning o‘zida borayotgan ehtiyoj harbiy sharhlovchilik maktablarini yaratish uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Ilmiy maqolada keltirilgan ma’lumotlarlar shuni ko‘rsatadiki:

1. O‘zbekistonda harbiy jurnalistika tarixi mavjud, lekin professional harbiy sharhlovchilik maktablari hali shakllanmagan.
2. NATO, AQSh va Rossiya tajribasi harbiy sharhlovchilik ta’limining xalqaro standartlarini ko‘rsatadi.
3. O‘zbekistonda harbiy sharhlovchilik maktablarini yaratish uchun maxsus ta’lim dasturlari, kadrlar tayyorlash, xalqaro hamkorlik va media muassasalari bilan integratsiya zarur.

O‘zbekistonda harbiy sharhlovchilik maktabini shakllantirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- O‘zbekiston Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetida "Harbiy sharhlovchilik va media ta’minot" yo‘nalishini ochish;
- Xalqaro hamkorlik (NATO, AQSh, Rossiya) asosida o‘quv dasturlari va malaka oshirish kurslarini tashkil etish;
- Media muassasalari bilan hamkorlik tizimini yo‘lga qo‘yish;
- Ilmiy tadqiqot yo‘nalishlarini rivojlantirish.

Harbiy sharhlovchilik maktablari O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining axborot imkoniyatlarini kengaytiradi, milliy xavfsizlikni mustahkamlaydi va xalqaro maydonda mamlakatimizning harbiy-siyosiy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Kelajakda bu yo‘nalishni rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasining harbiy-ta’lim siyosatining muhim ustuvoriga aylanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ro‘ziqulov D.Sh. O‘zbekistonda harbiy jurnalistikada axborot integratsiyasining nazariy va amaliy xususiyatlari. PhD dissertatsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 31.01.2023 yildagi PF-16-son. <https://lex.uz/uz/docs/-6375794>
3. O‘zbekistonda Qurolli kuchlar akademiyasi. <https://akad.uz/>
4. Mamlakatimizda harbiy jurnalistikaning vujudga kelishi va uning rivojlanish bosqichlari// <https://web-journal.ru/journal/article/view/1571>
5. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasi. O‘RQ-458-son. – Toshkent, 2018. URL: <https://lex.uz/docs/-3495885>

6. Ro‘ziqulov D.Sh. O‘zbekistonda harbiy jurnalistika axborot integratsiyasi jarayonlari tarkibida <https://www.oriens.uz/media/conferencearticles/55>.
7. O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti. Rasmiy veb-sayt. URL: <https://uzjoku.uz/uz>
8. O‘zbekiston Davlat jahon tillari universiteti. Xalqaro jurnalistika fakulteti. URL: <https://uzswlu.uz/>
9. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasini tasdiqladi // https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/senat_mudofaa_doktrinasini_tasdiqladi
10. Defense Information School (DINFOS). U.S. Department of Defense. USA, 2024. <https://www.dinfos.dma.mil/>
11. NATO Strategic Communications Centre of Excellence (Stratcom COE). Official website, 2024. <https://stratcomcoe.org/projects/academic-journal>
12. Sankt-Peterburg Davlat Universiteti. Jurnalistika fakulteti // <https://usfeu.ru/>
13. Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligi. "Krasnaya zvezda" gazetasi va "Zvezda" telekanali. Moskva, 2024.
14. Harbiy kadrlar tayyorlash masalasida o‘zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirishning pedagogik jihatlarini // Cyberleninka.ru. – 2023. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/harbiy-kadrlar-tayyorlash-masalasida-o-zaro-hamkorlik-alloqalarini-rivojlantirishning-pedagogik-jihatlarini>
15. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasini va davlat siri to‘g‘risidagi qonunchilik // <https://lex.uz/mact/-3495885>
16. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va media muassasalari bilan hamkorlik. Rasmiy ma’lumotlar. – Toshkent, 2024.
17. O‘zbekiston Qurolli Kuchlari Mudofaa va harbiy xavfsizlik muammolarini o‘rganish ilmiy-tadqiqot instituti. "Harbiy ilm-fan tadqiqotlari" jurnali. – Toshkent, 2024.